

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO‘NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

sifatida qiziqish va faoliyat jabhasi ko'p qirrali bo'lgan tarixiy shaxs sanaladi: shoir, memuarchi, shoh, sarkarda, tabiatshunos, adabiyotshunos, tilshunos, tarjimon, tarixchi, etnograf, geodezist va b. Bu jihat ensiklopediya maqolalarining ham mazmunan, ham shaklan rang-barang bo'lishiga, lug'atga qiziqishning ortishiga sabab bo'lgan. Bu esa lug'atga "universal ensiklopediya tabiatini kasb etadi" [10, 6].

Ushbu lug'atning yaratilishi o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi, qolaversa, o'zbek madaniyatida katta hodisa sifatida e'tirof etilib, muallif leksikografiyasining tarixiy shaxs qomusiy lug'atchiligi bobidagi mukammal, fundamental asar sifatida e'tiborga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Апресян Ю.Д. Языки русской культуры. М. 1993, 29-бет.
2. Щерба Л. В. Опыт общей теории лексикографии / Избранные работы по языкознанию и фонетике. (т. 1.). Ленинград, 1958.)
3. Назарова Х. Захириддин Муҳаммад Бобир асарлари учун қисқача луғат. Тошкент: Фан. 1972.
4. Исҳоқов Ф. "Бобурнома" учун қисқача изоҳли луғат". Андижон: Андижон нашриёт-матбаа. 2008.
5. Тешабоева З. "Бобурнома" даги фразеологик бирликлар ва паремияларнинг инглизча таржималари луғати. Тошкент: Тафаккур. 2016.
6. Навоий асарлари луғати. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1972.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдли. Тошкент: Фан. 1983. -198.
8. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-,2-жилд. Тошкент: Шарқ. 2016.
9. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. Тошкент, 1983.
10. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент: "Sharq" матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2017. 687 бет.

TURG'UN BIRIKMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Askarova Iroda Abdumali kizi
Andijon davlat chet tillari instituti
+998979939722
aayzek888@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi murakkabliklar o'rganilib, madaniy farqlar, idiomatik iboralar, ma'no va uslubni saqlash kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Unda tarjimonlar maqsadli tildagi frazeologik birliklarning mohiyatini o'ziga xos ta'mi va ta'sirini saqlab qolgan holda samarali etkazish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan strategiya va uslublar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: iboralar, turg'un so'z birikmalari, tarjima birligi, antonimik tarjima, sinonimik tarjima, frazema.

Annotation: This article explores the complexities involved in translating phraseological units, focusing on issues such as cultural differences, idiomatic expressions, and the preservation of meaning and style. It discusses strategies and techniques that translators can employ to effectively convey the essence of phraseological units in the target language while maintaining their original flavor and impact.

Key words: phrases, fixed phrases, translation unit, antonymic translation, synonymous translation, phraseme.

Tarjimashunoslik kelib chiqishiga nazar tashlasak, matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinayotganda qo'llanilishi lozim bo'lgan turli strategiyalar mavjudligi borasida ilmiy adabiyotlarda keltirilib o'tilgan. Tarjima jarayonida tarjima qilishda muammo tug'diradigan turg'un so'z birikmalari va iboralarning tarjimasi mutahasislardan chuqur bilim va izlanishni talab qiladi.³³ Turg'un so'z birikmalari va iboralarning tarjimasi va ma'nolari ularning tarkibiy qismlarining ma'nosi bilan bir biriga mutanosib emasligi, ayrim vaziyatlarda so'zma-so'z mos variantini topish mumkin bo'lmay qolishini aytib o'tadi. Iboralar va turg'un so'z birikmalariga "tarjima birligi" tarzida yondashiladi³⁴.

Beyker fikricha, chet tilida so'zlashuvchi barcha insonlarning chet tilida iboralar va turg'un so'z birikmalaridan foydalanish borasidagi fikrlarini til egasini bilan taqqoslab bo'lmaydi. Uning fikriga ko'ra, tarjimonlarning ko'pchiligi bir qator qiyinchiliklar uchraydiki, ular ibora va turg'un so'z birikmalarini tarjima qilish jarayonida ona tilida so'zlashuvchilari bilan bir xil darajaga erisha olmaydilar. Shu bilan birga, tarjima jarayonida tarjimaga tortilayotgan tillardagi matn va muallif, mavzu va o'quvchilardan kelib chiqqan holda turli xil turg'un so'z birikmalar, uslublardan foydalanishdagi barcha muommolarni turli yo'llar bilan bartaraf etish mumkin.³⁵

Olimning e'tirof etishicha, "idiomatik tarjima asl nusxadagi xabarni takrorlaydi, ammo asl nusxada mavjud bo'lmagan turg'un so'z birikmalarini va iboralarni afzal ko'rish orqali ma'nodagi kichik farqlarni buzadi"³⁶ deya fikr, mulohazalarini berib o'tgan

Mutaxasislardan biri Beyker tomonidan tarjimaning to'rt strategiyasi mutahasislarga qo'llanma tarzida taqdim etildi, quyida ularni batafsil ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bildik³⁷.

1. Avvalo antonimik tarjimani misol tariqasida keltiramiz, tarjimaning bu ko'rinishi, tarjima qilinayotgan materiallarning deyarli o'xshash shakllari olinadi, bu usulda tarjimonda deyarli qiyinchilik tug'ilmaydi. Qiyoslanayotgan tillarda o'xshash variant sifatida "on the tip off my tongue" iborasini o'zbek tilidagi muqobil shakli "tilimning uchida turibdi" iborasi bilan o'xshash deyish mumkin.

2. Sinonimik tarjimadan foydalanishda keltirilgan manbadan bir biriga shaklan mos kelmaydigan so'zlardan foydalanish mumkin. Quyidagilarni misol

³³ 4_1_AF55B21370F39C60015DF...<https://uniwork.buxdu.uz>

³⁴ Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

³⁵ Baker M. takroriy asar. FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING T...<https://cyberleninka.ru>

³⁶ Newmark P. takroriy asar. OZBEK-TILI-TARAQQIYOTI-VA-XAL... <https://researchgate.net>

³⁷ 13074_1_AF55B21370F39C60015DF...<https://uniwork.buxdu.uz>

tariqasida keltirishimiz mumkin, inglizcha "add fuel to the fire" iborasiga o‘zbek tilida "olovga yog‘ sepmoq" iborasi ma‘no jihatdan o‘xshash.

3. Tarjima qilishning muqobil variantlaridan biri deb, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinayotganda keltirilgan matnlarning perefraza shaklidan foydalanish usuli keng tarqalgan. Bunday vaziyatda so‘zlar va ularning ekvivalent shakllaridan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan, o‘zbekcha "ipidan ignasigacha aytmoq" iborasini "to tell every detail of something" shaklida tarjima qilish mumkin yoki o‘zbekcha "iloning yog‘ini yalagan" iborasini "cunning" ko‘rinishida muqobil variant to‘g‘ri keladi.

4. Tarjimada iboralarni tushirib qoldirish- Bitta so‘zlarga o‘xshab, ibora vaqti-vaqti bilan maqsadli matnda to‘liq etishmayotgan bo‘lishi mumkin. Buning sababi, iborani qayta ifodalash qiyinligi yoki stilistik jihatdan mo‘ljallangan materialga mos kelmasligi bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi "bor tovog‘im, kel tovog‘im, bormasang, kelmasang, o‘rtada sin tovog‘im" iborasini ingliz tilida ifodalash juda qiyin³⁸.

O‘zbekcha turg‘un birikmalar korpusda mavjud bo‘lsa, tarjima jarayonida ularning uslubiy elementlariga e‘tibor berish, kontekst va uslubga qarab muqobil ibora tanlash muhim bosqichlardan biridir. To‘g‘ri, frazemalar tarkibidagi so‘zlar va unga yuklangan semalar boshqa tildagi muqobil frazemalarga to‘laqonli mos kelmasligi, tarjimaning ifodaliligi va mantiqiylikiga putur yetkazishi mumkin. Har qanday tildagi turg‘un birikmalar milliy tafakkurni ifodalovchi mashhur madaniy-ma‘rifiy va ijtimoiy-siyosiy e‘tiqod mahsuli bo‘lganligi uchun ularni qat‘iy stilistik va grammatik qoidalarga muvofiq tarjima qilib bo‘lmaydi. Iboralar gapda so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishishi uchun muayyan sintaktik qurshovga ega bo‘lishi lozim. *"Sintaktik qurshov deganda iboralarning nutqda turli bo‘laklar bilan bog‘lanishi nazarda tutiladi. Iboraning biror sinaktik qurshovga ega bo‘lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe‘l iboralarda fe‘l so‘z – komponentining boshqaruviga va bu boshqaruvning ibora tarkibida reallashgan yoki reallashmaganligiga, ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog‘liq"*³⁹.

Shuning uchun barcha frazemalarga muqobil topish va uni sun‘iylashtirish shart emas. Quyida ingliz va o‘zbek tilidagi turg‘un birikmalarni muqobillashtirishni ba‘zi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

A drop in the ocean – deyarli ta‘sir qilmaydigan, juda kam miqdor. Bu ibora tarjima qilinganda *"okeandan bir tomchi"* degan ma‘noni bildirib, o‘zbek tilidagi *"dengizdan tomchi"*, *"xamir uchidan patir"*⁴⁰ frazemalari bilan bir xil ma‘no ifodalaydi va ular bilan mazmunan sinonim bo‘ladi. Bu ibora gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan semantik va grammatik jihatdan to‘laqonli birikadi, ya‘ni o‘zbek tilidagi "xamir uchidan patir", "dengizdan tomchi" frazemalari o‘rnida erkin qo‘llana oladi.

³⁸Baker M. takroriy asar. FRAZEOLGIK BIRIKMALARNING T...<https://cyberleninka.ru>

³⁹Rahmatullayev Sh. takroriy asar.

⁴⁰ К ПРОБЛЕМЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ...<http://elibrary.ru>

The cost of a hotel for one night is *a drop in the ocean* for a big company like that – bir kechalik mehmonxona narxi bu kabi kompaniyalar uchun *dengizdan tomchi/ xamir uchidan patir*(dir).

A leopard can't change its spots – bu ibora xulq-atvor va xarakterni hech qachon o‘zgartira olmaslikni ifodalashda foydalaniladi, tarjima qilinganda “*leopard (qoplon) o‘z dog‘larini o‘zgartira olmaydi*” degan ma‘noni ifodalaydi, o‘zbek tilida “*bukrini go‘r tuzatadi*” maqoliga mazmunan yaqin bo‘lib, grammatik qurilishi farq qiladi.

Xulosa. Tillar o‘zaro taqqoslanadigan frazeologik atamalarni baham ko‘radi va deyarli barcha vaziyatlarda izchil tarjima qilinadi. Biroq, tarjimondan har bir kontekstda, har bir tarjima bo‘yicha bir xil ekvivalent yoki muqobil birikmaga ega bo‘lgan ko‘p sonli frazeologizmlarni tarjima qilishni talab qilish qiyin. Ha, har bir tarjimon muallif uslubini aks ettirganidek, har bir tarjimada muallifning o‘ziga xos uslubiga ishora bor. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda bu yaqqol seziladi. Ikki tarjimon to‘liq matnni va uning barcha frazeologiyalarini bir-biriga o‘xshash tarzda tarjima qilishlari mumkin emas.⁴¹.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.13074_1_AF55B21370F39C60015DF...<https://uniwork.buxdu.uz>
- 2.4_1_AF55B21370F39C60015DF...<https://uniwork.buxdu.uz>
- 3.Baker M. takroriy asar. FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING T...<https://cyberleninka.ru>
- 4.Baker M. takroriy asar. FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING T...<https://cyberleninka.ru>
- 5.Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.
- 6.Newmark P. takroriy asar. OZBEK-TILI-TARAQQIYOTI-VA-XAL...<https://researchgate.net>
- 7.Rahmatullayev Sh. takroriy asar.
- 8.К ПРОБЛЕМЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ...<http://elibrary.ru>

INGLIZ TILIDAGI SUPERSEGMENT BIRLIKLAR (BO‘G‘IN, URG‘U, INTONATSIYA) NING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Saynazarova Mashhura
Andijon davlat chet tillari instituti
+998889732126 mashxurasaynazarovaa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola fonologiya ilmiy faniga oid bo‘lib, Ingliz tilidagi supersegment birliklariga oid ma‘lumotlar beradi. Tilni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan urg‘u, intonatsiya va bo‘g‘in turlari va ahamiyati haqida tushuntiradi. Shuningdek ushbu maqolada Ingliz tilidagi supersegment birliklarning turlari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada tildagi supersegment birliklarining fonologik tuzilishi va o‘xshash jihatlarni taqqoslanadi. **Ingliz tilidagi**

⁴¹ Kuganova A. A. Frazeologik birliklar va tarjima, 2022. <https://cyberleninka.ru>

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

| | | |
|-----|--|-----|
| 68. | IJODKOR ASARLARI LUGATSHUNOSLIGI Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich | 219 |
| 69. | TURG'UN BIRIKMALARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI Askarova Iroda Abdumali kizi | 223 |
| 70. | INGLIZ TILIDAGI SUPERSEGMENT BIRLIKLAR (BO'G'IN, URG'U, INTONATSIYA) NING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI Saynazarova Mashhura | 226 |
| 71. | ТУРЛИ ТАРИХИЙ ДАВРЛАРДА ХУШМУОМАЛАЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ Мавлонова Ўғилой Ҳамдамовна | 230 |
| 72. | MEDIA MATNLARIDA KOMIKS TUSHUNCHASINING TALQINI. (JURNALISTIKA SOHASIDA) Axmedova Gulxumor Nodirbek qizi | 233 |
| 73. | FRANSUZCHA MATBUOT MATNLARIDAGI IBORALARNING AYRIM SEMANTIK XUSUSIYATLARI Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna Miyassarova Nozima Ahmad qizi | 236 |
| 74. | “FASHION” TERMINING LINGVISTIKADA TUTGAN O'RNI Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi | 239 |
| 75. | INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TOPONIMIK KONVERSIYA MASALASI Pazilova Nasibaxon Muhammadqosimovna | 241 |
| 76. | INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EVFEMIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK MAYDON KO'LAMI No'monova Zebinso Usmonjon qizi | 245 |
| 77. | FRANSUZ MATBUOT MATNLARIDA SHOK-TAYMENTNING FRAZELOGIK BIRLIK KLAR ORQALI IFODALANISHI Suvonova Nigorabonu Norboyeva Nuriniso | 249 |
| 78. | PLACE OF ORIENTAL LANGUAGES IN THE FRENCH DICTIONARY Xasanova Dilnoza Tojiddinovna | 252 |
| 79. | THE CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S SPEECH AND ITS THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS Davlatova Xulkaroy PhD Shohrux Ergashev Qurbonali o'g'li , | 255 |
| 80. | DESCRIPTION DES CEREMONIES RELIGIEUSES DANS LE ROMAN DE “SALAMMBO” Mamadaliyeva Shaxzoda Qilicheva G.N. | 257 |
| 81. | “QISSASI RABG'UZIY” ASARIDA QO'LLANGAN IBORALARNING SHAKLLANISH ASOSLARI. TIL LEKSEMASI ASOSIDA IFODALANGAN FRAZELOGIZMLAR U.Farmonova | 259 |
| 82. | BALZAK ASARLARIDAGI IJTIMOYIY-AXLOQIY MA'NONI BERUVCHI SO'ZLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI Razoqova Gulchiroy Suvonova N.N. | 262 |
| 83. | SAYOHAT TERMINLARINING NUTQDAGI LINVOMADANIY VA LINVOPRAGMATIK JIHLTLARI TADQIQI G'oyiberdiyev Farog'iddin Dilshodbek o'g'li | 265 |
| 84. | O'G'ZAKI NUTQNING STRUKTUROVIY VA SEMANTIK | 267 |